

# Reforms Implemented in The Process of Preschool Education System

Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna

Pedagogical Institute of Andijan State University

She is a senior lecturer at the Department of Methods of Primary and Preschool Education

**Annotation:** The reform of the preschool education system in our country is recognized as a great renewal of the young generation, the future of our children. The role and importance of the preschool education system in the life of our society, which is the most important link in the upbringing of our children, cannot be measured by anything. It is the focus on pre-school education that will lay a solid foundation for the country's future development.

**Keywords:** Curriculum, continuing education, preschool education, areas of activity.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Umumiy ta'lim dasturlari: muktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-xunar ta'limi dasturlarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriat, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Muktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Muktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat muktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Muktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Muktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quydagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- ✚ malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- ✚ muktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- ✚ bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- ✚ zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- ✚ muktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ✚ muktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, muktabgacha tarbiyaning barcha massalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- ✚ muktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.<sup>1</sup>

Aytish kerakki, mamlakatimiz yirik o'zgarishlar va ulkan taraqqiyot maydoniga aylangan bugungi kunda muktabgacha ta'lim tizimi Uchinchi Renessans poydevorini yaratuvchi to'rtta oltin halqaning biri sifatida islohotlar qamroviga olingani quvonarlidir.

<sup>1</sup> (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15-son, 150-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son)

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoyqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, ayniqsa, sohaga malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega yangi avlod kadrlarini tarbiyalash berish – asosiy maqsadimizdir. Zero, bu yo'ldagi faol va tashabbuskorlik bilan ado etilgan sa'y-harakatlarimiz Yangi O'zbekistonning bugungi va ertangi istiqbolini belgilaydigan barkamol avlodni ma'naviy-ma'rifiy olamining yuksalishiga xizmat qiladi.<sup>2</sup>

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ⊕ har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalgamoshirilishini ta'minlash;
- ⊕ bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ⊕ bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish;
- ⊕ bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ⊕ ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish;
- ⊕ maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- ⊕ maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;
- ⊕ maktabgacha bo'lgan yoshdagи bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- ⊕ xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi.

Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlanadi.<sup>3</sup>

Maktabgacha ta'lim muassasalari, faoliyat yo'nalishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

Bolalar yasli, bolalar yasli bog'chasi, bolalar bog'chasi, uydagi bolalar bog'chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).

Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim mussasasi (bolalar bog'chasi-maktab).

Tarbiyanuvchilarini bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim muassasalari.

Tarbiya jismoniy va ruxiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagи bolalar bog'chasi.

Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalgamoshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

Birlashtirilgan turdagи bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagи bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruuhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo'lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta'lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta'sischilar tomonidan belgilanadi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilingan bo'lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta'limni boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

<sup>2</sup> Zuhro Akbarova.Bog'chalarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.

<sup>3</sup> Sh. Mirziyoyev.Toshkent. sh.,2019-yil 16-dekabr,O'RQ-595-son

Maxsus maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etish tartibi, mol-mulki va pul mablag'lari, maxsus maktabgacha ta`lim muassasasida o'quv-ta`lim va sog'lomlashadirish jarayonini tashkil qilish, ta`lim jarayoni ishtirokchilari va maxsus maktabgacha ta`lim muassasasining boshqaruvi haqidagi to'liq ma`lumotlar "Maxsus davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risidagi Nizom" da ko'rsatilgan. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarining olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta`lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nан barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergan ta`lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi. O'zbekistonda maktabgacha ta`lim tizimini tubdan isloq qilishda ta`limjarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir.

Bundan o'n yillar muqaddam bolalar bog'chalarining tanqis ekanligi, navbat asosida bolalarini maktabgacha ta`lim muassasasiga joylashtirish, har xil holatdagi kamchiliklarga ko'z yumish odatiy hol edi. Islohotlar samarasini o'laroq, bugun davlat sherikchilik asosidagi yoki xususiy maktabgacha ta`lim muassasalarining ko'p ekanligi juda ham quvonarli. Ularning ko'pligi raqobatni yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, ta`lim-tarbiya sifatining ham oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'qish, yozish, boshlang'ich matematik bilimlardan tashqari, ingliz tili, rus tili, raqs, sport turlari (gimnastika, karate), mental arifmetika, arab tili kabi yo'nalishlarning ta`lim-tarbiya jarayoniga qo'shib olib borilayotganligi ota-onalar, farzandlar uchun juda katta yutuq hisoblanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh. Mirziyoyev. Toshkent. sh., 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-ton
2. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15-son, 150-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-ton)
3. Zuhro Akbarova. Bog'chalarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi
4. zyo.net.uz
5. google www